

INKLYUZIV TA’LIMDA “TA’LIM HAMMA UCHUN” UMUMMILLIY DASTURI MOHIYATINI TARG’IB QILISH

Erkaboyeva Feruza G’ayratovna
Farg’ona davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimida o’qitish masalalariga e’tibor berish. “Ta’lim hamma uchun” umummilliyl dasturining mohiyatini targ’ibot qilish. Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalari tamoyillarini tasniflash hamda inklyuziv ta’lim asoslari haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Integratsiya, psixolo-pedagogik, korreksion ish, ijtimoiy moslashtirish, kompleks yondashish tamoyili.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to’g’risidagi Qonunning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo’lgan bolalar davlatxitisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiyl o’rta va o’rta maxsus ta’lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta’lim oladi”.

Inklyuziv ta’lim haqida so’z yuritilganda, uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so’z boradi. O’zi „Inklyuziv ta’lim” nima? „Inklyuziv ta’lim” bu (inglez tilidan olingan bo’lib, inclusive, inclusion-uyg’unlashmoq, uyg’unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi). Nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko’ra imkoniyati chelangan) o’smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniyarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to’g’risidagi qarashlari inklyuziv ta’lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo’ylgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida „inklyuziv” yoki „integratsion” ta’lim atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta’lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalari:

Inklyuziv ta’lim tizimida qo’yidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta’lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo’naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;
- o’quvchilarning ta’limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ixtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari.

1) Inklyuziv ta'limning Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishini talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi: 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili.

6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

7) Malakaviylik tamoyili.

1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida dekloratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ular jahoning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni xayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiyligi ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtaida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boorish eng birinchi galadagi masaladir.

2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. O'tgan o'ttiz bir yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limni tizimida joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ihtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lisi ta'minlanishi lozim.

3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. „Bog'lanish” bu so'zning zaminida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun mакtabga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolatini hal etishga xizmat qiladi

4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalananadi:

A) Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B) Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar maxalliy ta'lim organlari javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar maxalliy sharoitlaga moslashtirishlari lozim. Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lishi muhimdir.

Bu ayniqsa qishloq sharoitlaida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqt berish nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etadi.

Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etidi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalardan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlaini ta'minkashdan iboratdir.

6) Inklyuziv Ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlar har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan bo'lishi talab etiladi.

7) Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi.

Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarga (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

*Maxsus ta'lim tamoyillari

*Korreksion yo'naltirilganligi

*Nuqsonlarni aniqlash, ta'lim berishda kompleks(klinik-genetik, neyrofiziologik, psixolo-pedagogik) yondoshish

*Umumiy o'rta ma'lomit berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish

*Deffernsial tabaqalashtirish va alohida yondoshish

*Ta'limning usluksizligini ta'minlash

1990 yilda Tailandda o'ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada „Ta'lism hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyani dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. „Ta'lism hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lism olishini kafolatlaydi. „Ta'lism hamma uchun” shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham tenghuquqlig asosida ta'lism olishlari tushuniladi.

„Ta'lism hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasi quyidagicha bayonot qabul qilingan: „Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta'limga javob berishi bilan xarakterlanadi.Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy mактабда ta'lism-tarbiya olishini talab etadi;
- o'qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanaladi;
- maktabda to'laligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etadi;
- 34 -bolalar to'g'risidagi qaror kompleks tarzda qabuk qilinadi;
- bolalar har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- inklyuziv maktablarning moddi ta'minoti yaxshilanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o'quv rejaning asosi sifatida qaraladi;

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lism berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi.

“Ta'lism tizimi shunday bo'lishi kerakki deb yozadi L.S.Vigotskiy fikricha nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lism tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'niy L.S.Vigotskiy umumiyl va maxsus ta'lismni uyg'unlashtiradigan ta'lism tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan. 2003 yilda Respublikamizda „Ta'lism hamma uchun” Milliy dasturi ishlab chiqildi. „Ta'lism hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YUNESKO ning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lism tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzlusiz ta'lism tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. Mazkur rejada O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'lism tizimini „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi-„Ta'lism hamma uchun” Milliy Rejasining konseptual o'zagi asosida isloh etish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. XTB ta'lism markazi YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001-2003 yillarda „inklyuziv ta'lism” mavzusida seminar o'tkazib , uning tavsiyalariga asosan „Inklyuziv ta'lism resurs markazi” tashkil etildi. Hozirgi kunga kelib respublikamiz tomonidan viloyatlardagi maktablarda tashkil etilgan inklyuziv sinflar tajriba, sinov tariqasida o'z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Inklyuziv ta'lism g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targ'ibot- tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta’lim (Xalqaro va O’zbekistonidagi tajribalar) Toshkent-2011
2. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)
3. „Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
4. „Maktablar hamma uchun”- „ Bolalarni qutqaring jamg’armasi”-2002
5. „Ta’lim hamma uchun”- Dakar deklaratsiyasi-2002
6. „Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmi-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005
7. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
8. Muzaffarova, X. (2020). OQUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK OYIN VA MASHQLARNI TANLASH TEKNOLOGIYASI. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta’lim mussasalariga tadbiq etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
11. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
12. Музаффарова, Х. Н., & Эгамназаров, М. Ю. (2017). Махсус таълимда болалар интеллекти даражасини аниқлашда психологик-педагогик эксперимент ўтказиш технологияси. Современное образование (Узбекистан), (7).
13. Тангирова, Д., & Музаффарова, Х. (2014). Нарушения фонетических норм, встречающиеся в речи учащихся, и пути их исправления. Молодой ученый, (20), 738-740.
14. Muzaffarova, X. (2020). ДИДАКТИК ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ-ПЕДАГОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Архив Научных Публикаций JSPI.
15. Muzaffarova, X. (2020). Логопедик машғулотларда болалар сўз бойлигини ошириш бўйича тавсиялар. Архив Научных Публикаций JSPI.